



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

6 (92) 2026

**Сопредседатели редакционной
коллекции:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОИВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Д.Т. АШУРОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВА
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

6 (92)

2026
Апрель

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com
E: ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

UDC 618.14-002/-006:616-091.8:616-097

**РЕПРОДУКТИВ YOSHDAGI AYOLLARDA ENDOMETRIY PATOLOGIYALARINI
KOMPLEKS MORFOLOGIK VA IMMUNOGISTOKIMYOVIY BAHOLASHNING KLINIK
AHAMIYATI**

¹G'aybullaeva Ferangiz Amrullaevna <https://orcid.org/0009-0004-5714-1557>

²Ixtiyarova Gulchexra Akmalovna <https://orcid.org/0000-0002-1906-419X>

²Negmatullaeva Mastura Nurullaevna <https://orcid.org/0000-0001-7114-9097>

²Tuksanova Dilbar Ismatovna <https://orcid.org/0000-0002-7626-0410>

²Karimova Nilufar Nabijonovna <https://orcid.org/0000-0003-2150-4411>

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro sh.

A. Navoiy kochasi 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ **Rezyume**

Mazkur ilmiy maqolada reproduktiv va perimenopauzal yoshdagi ayollarda uchraydigan endometriyning giperplastik va yallig'lanishli patologiyalarining klinik-morfologik xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqot davomida surunkali endometrit, endometriy giperplaziyasi va endometrial polioplarga ega ayollarda klinik simptomatika, gormonal status, ultratovush ko'rsatkichlari hamda immunogistokimyoviy markerlar o'zaro taqqoslandi. Tadqiqotda 240 nafar ayol ishtirok etdi. Olingan natijalarga ko'ra, CD138 markerining yuqori ekspressiyasi surunkali endometrit uchun eng sezgir diagnostik marker ekanligi aniqlandi. ER va PR reseptorlaridagi o'zgarishlar proliferativ patologiyalar og'irligi bilan bog'liqligi qayd qilindi. Kompleks diagnostik yondashuv yordamida klinik tashxis aniqligi sezilarli oshdi va patologik jarayonlarni differensial baholash imkoniyati kengaydi.

Kalit so'zlar: endometriy patologiyasi, surunkali endometrit, immunogistokimyo, CD138, giperplaziya, reproduktiv salomatlik, morfologiya, proliferatsiya, ultratovush diagnostikasi, gormonal disbalans.

**КЛИНИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ КОМПЛЕКСНОЙ MORFOLOGИЧЕСКОЙ И
ИММУНОГИСТОХИМИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ ПАТОЛОГИЙ ЭНДОМЕТРИЯ У
ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА**

*Гайбуллаева Ферангиз Амруллаевна., Ихтиярова Гулчехра Акмаловна., Негматуллаева
Мастура Нуруллаевна., Туксанова Дильбар Исматовна., Каримова Нулуфар Набижонова*

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан,
г. Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ **Резюме**

В данной научной статье изучены клинко-морфологические особенности гиперпластических и воспалительных патологий эндометрия у женщин репродуктивного и перименопаузального возраста. В ходе исследования были сопоставлены клиническая симптоматика, гормональный статус, ультразвуковые показатели и иммуногистохимические маркеры у женщин с хроническим эндометритом, гиперплазией эндометрия и эндометриальными полипами. В исследовании приняли участие 240 женщин. Полученные результаты показали, что высокая экспрессия маркера CD138 является наиболее чувствительным диагностическим маркером хронического эндометрита. Установлена связь изменений рецепторов ER и PR с тяжестью пролиферативных патологий. Применение комплексного диагностического подхода позволило значительно повысить точность клинической диагностики и расширить возможности дифференциальной оценки патологических процессов.

Ключевые слова. патология эндометрия, хронический эндометрит, иммуногистохимия, CD138, гиперплазия, репродуктивное здоровье, морфология, пролиферация, ультразвуковая диагностика, гормональный дисбаланс.

CLINICAL SIGNIFICANCE OF COMPLEX MORPHOLOGICAL AND IMMUNOHISTOCHEMICAL ASSESSMENT OF ENDOMETRIAL PATHOLOGIES IN REPRODUCTIVE-AGED WOMEN

Gaybullaeva Ferangiz Amrullaevna., Ikhtiyarova Gulchekhira Akmalovna., Negmatullaeva Mastura Nurullaevna., Tuksanova Dilbar Ismatovna., Karimova Nilufar Nabijonovna

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, st. A. Navoi. 1
Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Resume*

This scientific article investigated the clinical and morphological characteristics of hyperplastic and inflammatory endometrial pathologies in women of reproductive and perimenopausal age. During the study, clinical symptoms, hormonal status, ultrasound findings, and immunohistochemical markers were compared among women with chronic endometritis, endometrial hyperplasia, and endometrial polyps. A total of 240 women participated in the study. The obtained results demonstrated that high expression of the CD138 marker is the most sensitive diagnostic marker for chronic endometritis. Changes in ER and PR receptor expression were found to be associated with the severity of proliferative pathologies. The use of a comprehensive diagnostic approach significantly improved the accuracy of clinical diagnosis and expanded the possibilities for differential evaluation of pathological processes.

Keywords. endometrial pathology, chronic endometritis, immunohistochemistry, CD138, hyperplasia, reproductive health, morphology, proliferation, ultrasound diagnostics, hormonal imbalance.

Dolzarbligi

Endometriyning morfofunktsional patologiyalari zamonaviy ginekologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda reproduktiv yoshdagi ayollar orasida endometriy giperplaziyasi, surunkali endometrit va endometrial poliplar bilan kasallanish ko'rsatkichlari sezilarli ortgani kuzatilmoqda [1]. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, reproduktiv tizim kasalliklari bilan bog'liq ginekologik murojaatlarning 35–45% ini endometriy patologiyalari tashkil qiladi [2].

Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan endometriy patologiyalarining shakllanishida gormonal disbalans, immunologik o'zgarishlar, surunkali yallig'lanish va metabolik sindrom muhim rol o'ynashi qayd etilgan [3]. Cicinelli va hammualliflarining tadqiqotlariga ko'ra, surunkali endometrit bilan kasallangan ayollarning 60% dan ortig'ida reproduktiv funksiyaning buzilishi kuzatiladi [4]. Di Pietro va hammualliflari esa immunogistokimyoviy markerlardan foydalanish surunkali endometrit va giperplastik jarayonlarni differensial tashxislashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatgan [5].

Endometriy patologiyalarining klinik simptomlari ko'pincha nonspecific xarakterga ega bo'lib, tashxis qo'yishni murakkablashtiradi. Ayniqsa surunkali endometrit uzoq vaqt yashirin kechishi sababli ko'plab hollarda kech bosqichlarda aniqlanadi [6]. Bu esa bepushtlik, homila tushishi va implantatsiya muvaffaqiyatsizligi xavfini oshiradi.

ESHRE va ACOG klinik tavsiyalarida endometriy patologiyalarini tashxislashda morfologik va immunogistokimyoviy tekshiruvlarni kompleks qo'llash tavsiya etilgan [7]. CD138 markerining plazmatik hujayralarni aniqlashdagi diagnostik ahamiyati ko'plab ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlangan [8]. Shu bilan birga ER va PR reseptorlarining ekspressiyasini baholash proliferativ jarayonlarning gormonal bog'liqligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi [9].

O'zbekiston Respublikasida ham endometriy patologiyalarining uchrash chastotasi ortib bormoqda. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan kuzatuvlarda reproduktiv yoshdagi ayollarda giperplastik va yallig'lanishli patologiyalar ginekologik kasalliklarning muhim qismini tashkil qilishi ko'rsatilgan [10]. Biroq klinik, morfologik va immunogistokimyoviy tekshiruvlarni birlashtirgan kompleks diagnostik yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mazkur muammoning dolzarbligi endometriy patologiyalarini erta aniqlash, individual davolash taktikasini tanlash va reproduktiv funksiyani saqlab qolish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqot maqsadi: Reproktiv va perimenopauzal yoshdagi ayollarda endometriyning morfofunktsional patologiyalarini kompleks klinik, morfologik va immunogistokimyoviy baholash orqali differensial diagnostika samaradorligini aniqlash.

Material va usullari

Mazkur tadqiqot Buxoro davlat tibbiyot instituti klinik bazalarida 2018–2024 yillar davomida olib borildi. Tadqiqotga jami 240 nafar reproduktiv va perimenopauzal yoshdagi ayollar jalb qilindi. Ulardan 100 nafari surunkali endometrit guruhi, 70 nafari endometriy giperplaziyasi guruhi, 50 nafari endometrial poliplar guruhi va 20 nafari nazorat guruhini tashkil etdi.

Bemorlarning yoshi 22 yoshdan 49 yoshgacha bo'lib, o'rtacha yosh $39,8 \pm 4,1$ yilni tashkil etdi. Tadqiqotga kiritilgan barcha ayollarda umumiy klinik va ginekologik anamnez yig'ildi. Hayz funksiyasi, reproduktiv anamnez, abortlar soni, ekstragenital kasalliklar va jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar mavjudligi o'rganildi.

Transvaginal ultratovush tekshiruvi Voluson E8 apparatida amalga oshirildi. Endometriy qalinligi, echostruktura, giperechogen o'choqlar va bachadon bo'shlig'i holati baholandi. Zarurat tug'ilgan hollarda gisteroskopiya va pipel-biopsiya bajarildi.

Morfologik tekshiruvlarda biopsiya materiallari formalinda fiksatsiya qilinib, standart gistologik usullarda tayyorlandi. Preparatlar gematoksilin-eozin bilan bo'yaldi va Leica DM2500 mikroskopida baholandi.

Immunogistokimyoviy tekshiruvlarda CD138, ER, PR va Ki67 markerlari qo'llanildi. Markerlar ekspresiyasi yarim avtomatik vizual baholash tizimi yordamida o'rganildi.

Gormonal tekshiruvlarda estradiol, progesteron, FSG va prolaktin darajalari ximiluminescent analiz usuli yordamida aniqlangan.

Statistik tahlillar SPSS 26.0 dasturi yordamida bajarildi. O'rtacha qiymatlar $M \pm m$ ko'rinishida ifodalandi. Student t-mezone, χ^2 testi va ANOVA usullaridan foydalanildi. Statistik ahamiyatlilik $p < 0,05$ darajasida baholandi.

Natija va tahlillar

Tadqiqot davomida barcha bemorlarda klinik simptomatika va laborator-instrumental ko'rsatkichlar batafsil baholandi. Dastlab bemorlar klinik simptomlar va ultratovush natijalari asosida guruhlariga ajratildi. Keyinchalik morfologik va immunogistokimyoviy tekshiruvlar yordamida tashxis verifikatsiya qilindi.

Surunkali endometritli ayollarda patologik vaginal ajralmalar va og'riq sindromi ustunlik qilgan bo'lsa, giperplaziya guruhida anormal bachadon qon ketishlari asosiy simptom sifatida qayd qilindi.

1-jadval

Tadqiqot guruhlarida klinik simptomlarning uchrash darajasi

Klinik belgilar	Endometrit	Giperplaziya	Poliplar	Nazorat	p
Anormal qon ketish	79%	92%	67%	5%	<0,001
Og'riq sindromi	56%	31%	35%	4%	<0,01
Patologik ajralmalar	63%	28%	22%	0	<0,001
Bepushtlik	27%	34%	19%	0	<0,05

Klinik simptomlar ichida anormal bachadon qon ketishlari giperplaziyada eng yuqori darajada kuzatildi. Surunkali endometritli ayollarda esa yallig'lanish bilan bog'liq simptomlar ustunlik qildi. Bepushtlikning yuqori uchrashi endometriy patologiyalarining reproduktiv funksiyaga salbiy ta'sirini tasdiqlaydi.

Reproduktiv anamnezni o'rganish natijasida abortlar va invaziv ginekologik muolajalar surunkali endometritli bemorlarda ko'proq uchrashi aniqlandi.

Tadqiqot guruhlarida ekstragenital kasalliklarning uchrash ko'rsatkichlari

Kasalliklar	Endometrit	Giperplaziya	Poliplar
Semizlik	42%	58%	45%
Arterial gipertenziya	38%	47%	34%
Qandli diabet	15%	19%	12%
Dislipidemiya	26%	31%	24%

Metabolik sindrom komponentlari giperplaziya guruhida yuqori uchrashi proliferativ jarayonlarning metabolik buzilishlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Gormonal tekshiruv natijalari progesteron darajasining barcha patologik guruhlarda pasayganligini ko'rsatdi.

Gormonal profil natijalari

Ko'rsatkich	Endometrit	Giperplaziya	Poliplar	Nazorat
FSG	6,1	6,4	5,9	4,3
Progesteron	3,8	4,1	3,2	7,8
Estradiol	420	398	448	412
Prolaktin	18,2	17,9	16,8	12,5

Progesteronning pasayishi endometriyning proliferativ o'zgarishlari bilan bog'liq gormonal disbalansni ko'rsatadi. Estradiolning yuqori ko'rsatkichlari proliferativ jarayonlarning kuchayganligini tasdiqlaydi.

Immunogistokimyoviy tekshiruvlar davomida CD138 markerining surunkali endometritda yuqori ekspressiyasi aniqlandi.

Immunogistokimyoviy markerlar ekspressiyasi

Marker	Endometrit	Giperplaziya	Poliplar	Nazorat
CD138 (+)	82%	14%	8%	0
ER ekspressiyasi	48%	76%	69%	81%
PR ekspressiyasi	39%	61%	57%	84%
Ki67 yuqori ekspressiya	31%	74%	58%	12%

CD138 markerining yuqori ekspressiyasi surunkali endometrit uchun eng muhim diagnostik marker ekanligini tasdiqladi. Ki67 proliferativ faollikning giperplaziyada yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Ultratovush tekshiruvlari davomida endometriy qalinligining giperplaziyada sezilarli oshishi kuzatildi.

Ultrasonografik ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	Endometrit	Giperplaziya	Poliplar	Nazorat
Endometriy qalinligi (mm)	7,4±1,3	13,2±2,4	10,7±1,8	6,1±1,1
Giperechogen o'choqlar	14%	19%	44%	3%
Qon oqimi kuchayishi	37%	71%	53%	8%

Endometriy qalinligining eng yuqori ko'rsatkichlari giperplaziyada qayd etildi. Poliplarda esa o'choqli giperechogenlik asosiy ultrasonografik belgi sifatida kuzatildi.

Tadqiqot davomida klinik, morfologik va immunogistokimyoviy tekshiruvlarni birlashtirgan kompleks diagnostik yondashuv tashxis aniqligini sezilarli oshirdi.

Muhokama: mazkur tadqiqot natijalari endometriyning morfofunktsional patologiyalarida gormonal, yallig'lanishli va proliferativ mexanizmlarning murakkab o'zaro bog'liqligini tasdiqladi. Surunkali endometrit bilan kasallangan ayollarda CD138 markerining yuqori ekspressiyasi ushbu markerning amaliy diagnostik ahamiyatini yana bir bor isbotladi. Bu natijalar xalqaro ilmiy tadqiqotlar bilan to'liq mos keladi.

Tadqiqot davomida anormal bachadon qon ketishlari giperplaziya uchun asosiy klinik simptom ekanligi aniqlandi. Bu proliferativ jarayonlar natijasida endometriy vaskulyarizatsiyasining kuchayishi bilan bog'liq. Surunkali endometritda esa og'riq va patologik ajralmalar ustunligi yallig'lanish komponentining faol ekanligini ko'rsatadi.

Progesteron darajasining pasayishi barcha patologik guruhlarda qayd etildi. Bu endometriy proliferatsiyasini nazorat qiluvchi gormonal mexanizmlarning buzilganligini ko'rsatadi. ER va PR reseptorlari ekspressiyasining pasayishi proliferativ patologiyalarning og'ir kechishi bilan bog'liq bo'lib, individual gormonal terapiya tanlash zarurligini asoslaydi.

Ultratovush tekshiruvlari giperplastik jarayonlarni aniqlashda samarali bo'lsa-da, surunkali endometritni aniqlashda yetarli darajada sezgir emasligi kuzatildi. Shu sababli morfologik va immunogistokimyoviy tekshiruvlarni amaliyotga keng joriy etish zarur hisoblanadi.

Ki67 markerining yuqori ekspressiyasi proliferativ jarayonlarning faolligini aks ettirdi. Ayniqsa giperplaziya va poliplarda proliferatsiya darajasining oshishi onkologik xavf nuqtai nazaridan muhim klinik ahamiyatga ega.

Kompleks diagnostik algoritm klinik amaliyotda yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Bu yondashuv noto'g'ri tashxis va asossiz invaziv muolajalarni kamaytirish imkonini berdi. Olingan natijalar reproduktiv salomatlikni saqlash va individual davolash taktikasini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot reproduktiv va perimenopauzal yoshdagi ayollarda endometriyning morfofunksional patologiyalarini kompleks baholash differensial diagnostika samaradorligini sezilarli oshirishini ko'rsatdi. Surunkali endometritda CD138 markerining yuqori ekspressiyasi ushbu patologiyani erda aniqlash imkonini berdi. Endometriy giperplaziyasi va poliplarda proliferativ faollikning oshishi hamda progesteron yetishmovchiligi asosiy patogenetik omillar sifatida namoyon bo'ldi. Ultrasonografik tekshiruv proliferativ jarayonlarni aniqlashda samarali bo'lsa-da, surunkali endometritni tashxislashda morfologik verifikatsiya zarurligi aniqlandi. Immunogistokimyoviy markerlardan foydalanish tashxis aniqligini oshirib, individual davolash strategiyasini ishlab chiqish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari endometriy patologiyalarini zamonaviy diagnostik yondashuvlar asosida baholash reproduktiv salomatlikni yaxshilashda muhim klinik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Cicinelli E, Matteo M, Trojano G, et al. Chronic endometritis in patients with unexplained infertility: prevalence and effects of antibiotic treatment. *Fertil Steril.* 2018;110(1):103-112. doi:10.1016/j.fertnstert.2018.03.028.
2. Di Pietro C, Cicinelli E, Guglielmino MR, et al. Altered transcriptional regulation of cytokines, growth factors, and apoptotic proteins in chronic endometritis. *Am J Reprod Immunol.* 2020;83(4):e13242. doi:10.1111/aji.13242.
3. Kitaya K, Takeuchi T, Mizuta S, et al. Endometritis: new time, new concepts. *Fertil Steril.* 2018;110(3):344-350. doi:10.1016/j.fertnstert.2018.04.012.
4. Johnston-MacAnanny EB, Hartnett J, Engmann LL, et al. Chronic endometritis is a frequent finding in women with recurrent implantation failure after in vitro fertilization. *Fertil Steril.* 2010;93(2):437-441. doi:10.1016/j.fertnstert.2008.12.131.
5. Bouet PE, El Hachem H, Monceau E, et al. Chronic endometritis in women with recurrent pregnancy loss and recurrent implantation failure: prevalence and role of office hysteroscopy and immunohistochemistry in diagnosis. *Fertil Steril.* 2019;111(1):32-39. doi:10.1016/j.fertnstert.2018.09.016.
6. ACOG Practice Bulletin No. 149: Endometrial hyperplasia. *Obstet Gynecol.* 2015;125(1):206-217. doi:10.1097/01.AOG.0000459861.74221.f1.
7. ESHRE Guideline Group on RIF. Recurrent implantation failure guideline. *Hum Reprod Open.* 2019;2019(2):hoz004. doi:10.1093/hropen/hoz004.
8. Polisseni F, Bambirra EA, Camargos AF. Detection of chronic endometritis by diagnostic hysteroscopy in asymptomatic infertile patients. *Gynecol Obstet Invest.* 2011;76(3):154-158. doi:10.1159/000320647.
9. Kasius JC, Fatemi HM, Bourgain C, et al. The impact of chronic endometritis on reproductive outcome. *Fertil Steril.* 2011;96(6):1451-1456. doi:10.1016/j.fertnstert.2011.09.039.
10. World Health Organization. Endometrial cancer: early diagnosis and screening. Geneva: World Health Organization; 2023. 68 p.

Qabul qilingan sana 20.05.2026